

milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq ustalarining ko'p qirralari boy merosini o'rganish, o'zlashtirish va amaliy faoliyatlariga qo'llash kabilarni o'rgatish.

Qator yillardan buyon olib borgan kuzatishlar natijasida yuqorida ko'rsatib o'tilgan mehnat ta'limi-texnologiya ta'limining asosiy xususiyatlariga qo'shimcha ravishda aytish mumkinki, ushbu sohaning har bir bosqichini, mashg'ulotini, mavzusini, mavzu qismlarini o'tishda ham o'ziga xoslik sezilib turishini ta'kidlash o'rinlidir.

Texnologiya ta'limining o'ziga xos xususiyatlari, ahamiyati uning ta'lim mazmunini tanlashda, har bir bosqich uchun belgilab olishda namoyon bo'ladi. Jumladan xalq hunarmandchiligining umumta'lim maktablari texnologiya o'quv predmeti tarkibiga kiritilishi texnologiya darslarini tashkil etishning ko'lamini yanada kengaytirishga, shahar va qishlok maktablarida texnologiya ta'limi darslarini tashkil etishni yanada yaxshilashga olib keladi. chunki, ushbu ta'limning an'anaviy ko'rinishda shahar va qishlok maktablarida mashg'ulotlarni tashkil etishda xalq hunarmandchiligi sohalar taraqqiyoti, ta'lim muassasani o'rab turgan ishlab chiqarish sohalarini hisobga olib, ularga bog'lanish zarur. Xalq hunarmandchiligining esa bevosita xalq xo'jaligi (mahalliy) tarmoqlarga bog'lik bo'lmagan holda o'quvchilarga turli umumtexnologiya, maxsus ko'nikmalarni o'rgatishda didaktik imkoniyatlari behisobdir.

Xalq hunarmandchiligi sohalarini o'rganish bo'yicha olib borilayotgan mashg'ulotlarning moddiy, xom ashyo, materiallar bilan ta'minlanishini yo'lga qo'yishda deyarli barcha maktablarda mahalliy imkoniyatlar mavjuddir. Mahalliy xom ashyo ta'minotini o'quvchilar va o'qituvchilar o'z kuchlari bilan bevosita amalga oshirishlari mumkin. Xalq hunarmandchiligining texnologiya va kasb-hunar ta'limida muntazam o'rganilishi o'g'il va qiz bolalar texnologiyaini, qishloq va shahar maktablarida muqobil mashg'ulotlarning tashkil etilishini va qolaversa, o'quvchilarning ta'lim muassasasini bitirganlaridan so'ng doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlanishlarini ma'lum tartibga soladi.

Umumiy ta'lim maktablarida texnologiya ta'limi mashg'ulotlari negizida xalq xo'jaligi soxalari xususiyatlarini, ishlab chiqarish bilan bog'liq nazariy ma'lumotlarni, ma'naviy, milliy, madaniy, moddiy qadriyatlardan hisoblangan xalq hunarmandchiligining turli yo'nalishlarini o'rganish va yoshlarga o'rgatish

ishlarining yo'lga qo'yilishi ushbu sohalarning didaktik, tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyos ekanligini ko'rsatadi. Shu jixatdan Texnologiya ta'limida o'quvchilarni kasblar bilan tanishtirish, kasb tanlashuf yo'naltirishda o'rni kattadir.

Yuqorida bayon qilingan kasb tanlashga yo'llash ishlarining samaradoligini oshirishda texnologiya darslarida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan, axborot texnologiyalardan keng foydalanishni talab qiladi. SHu bilin birga ta'lim vositalarini ham moderinizatsiya qilsh xam zarur. Chunki, o'quvchilarni xalq xo'jaligining turli tarmoqlari, ularda zarur bo'ladigan kasb egalari uchun muxim jixatlar bilan tanishtirish imkoniyatlari ana shu vositalarga bilan chambarchas bog'liq.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. Abduqudusov O. Kasb-hunar pedagogikasi. Darslik. – T.: O‘MKHTTKMO va UQTI, 2014.
2. Pedagogika nazariyasi va tarixi. M.X. To‘xtaxo‘jaeva tahriri ostida. – T.: “Moliya-iqtisod”, 2008.